

### **“MENING MULKIM” SUG'URTA MAHSULOTI BO'YICHA OMMAVIY OFERTA**

Mazkur Ommaviy Oferta (matn davomida “Oferta” deb yuritiladi) “MY-INSURANCE” Aksiyadorlik Jamiyati Sug'urta Tashkilotining (matn davomida Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (matn davomida Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida elektron shaklda tuzish taklifi hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi kelishuv taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va belgilangan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlangandan so'ng unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

Ushbu Oferta sug'urta polisini rasmiylashtirish sanasida amalda bo'lgan “Mening mulkim” sug'urta mahsuloti bo'yicha fuqarolarning mazkur ofertada ko'rsatilgan shartlar asosida tartibga solinadi. Ushbu oferta <https://myinsurance.uz/qoidalar> havolasi orqali, rasmiy veb-saytda jamoatchilikka ochiq taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq ushbu Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilish (aksept qilish) ommaviy Oferta shartlarini qabul qilish hisoblanadi, bu quyidagilarga:

- ushbu Oferta shartlari, shu jumladan unda ko'rsatilgan sug'urta shartlari bilan rozilik;
- sug'urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, 5 (besh) yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan usulda qayta ishlash yo'li bilan uzatish, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini ifodalaydi.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, Sug'urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

“Sug'urta shartnomasi” va “Sug'urta polisi” atamalari bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

## **“MENING MULKIM” SUG'URTA MAHSULOTI BO'YICHA OMMAVIY OFERTA ASOSIDA TUZILGAN MOL-MULKLARNI SUG'URTALASH SHARTNOMASI (POLIS) MUHIM SHARTLARI**

### **1-BO'LIM. ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI**

1.1. Ushbu Ofertada ishlatiladigan asosiy atamalar:

- **Sug'urtalovchi** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan litsenziya asosida faoliyat yurituvchi “MY-INSURANCE” AJ ST.
- **Sug'urta qildiruvchi** – Sug'urtalovchi bilan sug'urta polisini tuzgan va u bo'yicha sug'urta mukofotini to'lagan jismoniy shaxs.
- **Sug'urta hodisasi** – to'satdan, oldindan anglanmagan va insonlarning xohishsiz yuz bergan, sug'urtalangan shaxsning sug'urta muddati mobaynida mulkiga zarar yetkazuvchi baxtsiz hodisa.
- **Sug'urta polisi** – sug'urta mukofoti to'langandan so'ng, Sug'urtalovchi bilan Sug'urta qildiruvchining kelishuviga binoan hamda uning sug'urta summasi doirasidagi javobgarligini tasdiqlovchi hujjat.
- **Sug'urta summasi** – Sug'urtalovchi sug'urta polisi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlarini qoplashi uchun pul summasining eng yuqori hajmi.
- **Sug'urta mukofoti** – Sug'urta qildiruvchi sug'urta polisini tuzish asosida Sug'urtalovchiga (uning agentiga) to'lashi shart bo'lgan sug'urta badali.
- **Sug'urta to'voni** – sug'urta polida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida ko'rilgan zararni to'liq yoki qisman qoplash uchun Sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan pul mablag'i.
- **Ariza so'rovnomasi** – Sug'urta qildiruvchining rasmiy veb-sayti yoki internet xizmati orqali sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni kiritish yo'li bilan Sug'urtalovchi tomonidan to'ldiriladigan onlayn ariza shakli (elektron ariza). Elektron shaklda to'ldirilgan ariza, agar u to'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, sug'urta qilish uchun yozma arizaga teng hisoblanadi.
- **Oferta** – bir yoki bir nechta muayyan shaxslarga yuborilgan, yetarli darajada aniq bo'lgan va taklifni kiritgan shaxsning o'zini taklif yuborilgan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif.
- **Sug'urta hududi** – sug'urta shartnomasida (sug'urta polida) ko'rsatilgan sug'urta amal qiladigan hudud.
- **Sug'urta javobgarligi vaqti** – tunu kun.
- **Sug'urta javobgarligi davri** – 365 kun. Sug'urtalovchining sug'urta to'voni to'lashi bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti to'langan sanadan keyingi kunning 00:00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.
- **Franshiza (shartsiz)** – Sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararning Sug'urtalovchi tomonidan har bir sug'urta hodisasi bo'yicha qoplanmaydigan qismi.

### **2-BO'LIM. SUG'URTA OBYEKTI VA SUBYEKTLARI**

2.1. Sug'urta obyekti – sug'urta polisining amal qilishi davrida Sug'urta qildiruvchining mulkiga belgilangan xavf-xatarliklar oqibatida yetgan zararning Sug'urtalovchi tomonidan to'lab berilishi bilan bog'liq mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

2.2. Sug'urta subyektlari – Sug'urtalovchi hamda sug'urta polida Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi sifatida ko'rsatilgan shaxslar hisoblanadi.

### **3-BO'LIM. SUG'URTA HODISALARI. SUG'URTA HODISALARIDAGI ISTISNOLAR**

3.1. Quyidagi risklar sug'urta hodisalari hisoblanadi:

- yong'in (olov ta'sirida, gaz portlashi, yashin urishi, yonuvchi mahsulotlar yetkazgan zarar, yong'inni o'chirish tadbirlaridan ko'rilgan zarar);
- suv toshishi (santexnika tizimlarining yorilishi, qo'shni xona (binolar)dan);
- mexanik shikastlanish (transport vositalarining kelib urilishi, uchuvchi apparatlar va ularning qismlarining kelib tushishi, daraxtlar, ustunlar, narsalarning qulashi);
- uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (buzg'unchilik, o'g'irlik, bosqinchilik, talonchilik, bezorilik);
- tabiiy ofatlar (zilzila, yer o'pirlilishi, ko'chki, dovul, bo'ron, to'fon, vulqon otilishi, suv toshqini, shiddatli atmosferaviy yog'ingarchilik).

3.2. Ushbu Ofertaga ko'ra, quyidagi holatlar sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi va javobgarlik olib borilmaydi:

- yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish;
- harbiy harakatlar va boshqa harbiy tadbirlar;
- fuqarolik urushlari, turli ko'rinishdagi xalq qo'zg'olonlari yoki ish tashlashlar;
- davlat organlari qaroriga ko'ra mol-mulkni buzish, musodara qilish, konfiskatsiya qilish, rekvizitsiya qilish, hisobga olish yoki yo'q qilish;
- Sug'urta qildiruvchining hamda oila a'zolarining qasddan qilingan harakatlari;

- Sug'urta qildiruvchining toksik, narkotik yoki alkohol moddalar ta'sirida mast holatdagi harakatlari (harakatsizligi);
- mulkning chirishi, korroziyasi va uning boshqa tabiiy xususiyatlarini o'zgarishi;
- Sug'urta qildiruvchi uy-joyi (kvartirasi)da portlovchi moddalar va portlash xavfi bo'lgan moslamalarni tayyorlash, saqlash, ulardan foydalanish, kimyoviy va fizikaviy tajribalarni o'tkazish;
- tabiiy ofat, yer osti yoki o'rmon yong'ini natijasida, agar sug'urta polisi sug'urta obyekti joylashgan hududning mahalliy maxsus vakolatli organlari (FVV, IIV, Gidrometeorologik xizmat va boshqalar) tomonidan tabiiy ofatlar, yer osti va o'rmon yong'inlari yuz berishi xavfi mavjudligi haqida xabar berilganidan so'ng tuzilgan bo'lsa;
- boshqa sug'urta hodisalarini keltirib chiqarmagan holda, elektr tokining qisqa tutashuvi vujudga kelishi natijasida elektr uskunalarini detallariga va tizimlariga zarar yetishi;
- Sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida mavjud bo'lgan mol-mulkingdagi nuqsonlar tufayli.

#### **4-BO'LIM. SUG'URTA PULI, FRANSHIZA, SUG'URTA MUKOFOTI, UNI TO'LASH TARTIBI**

- 4.1.** Sug'urta puli – bu sug'urta shartnomasi (sug'urta polisini) bo'yicha Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini bajarish uchun javobgar bo'lgan pul miqdori.
- 4.2.** Sug'urta puli miqdori Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi va sug'urta shartnomasida (sug'urta polishda) ko'rsatiladi.
- 4.3.** Sug'urta shartlariga ko'ra franshiza qo'llanilmaydi.
- 4.4.** Sug'urtalovchi sug'urta polisi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdorini hisoblashda o'zi tomonidan tasdiqlangan, sug'urta xavfining xususiyatini, sug'urta majburiyatlarining hajmini va muddatini hisobga olgan sug'urta tariflarini qo'llaydi.
- 4.5.** Sug'urta mukofoti miqdori real vaqt rejimida Sug'urtalovchining veb-saytida ko'rsatiladi va Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'lov tizimi operatorlari yordamida Sug'urtalovchining hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan bir vaqtning o'zida to'lanadi.
- 4.6.** Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofotini to'lash fakti bir vaqtning o'zida uning ushbu ofertaning barcha shartlariga roziligini tasdiqlaydi.
- 4.7.** O'zaro hisob-kitoblarning valyutasi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – **so'm** hisoblanadi.

#### **5-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASI VA UNING AMAL QILISH MUDDATI**

- 5.1.** Sug'urta shartnomasi 1 (bir) yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuzilishi mumkin. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ning amal qilish muddati "Mening mulkim" sug'urta mahsulotining amal qilish muddatidan oshmasligi (yoki uni rejalashtirilgan almashtirish davridan) kerak.
- 5.2.** Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lagan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va polisdan ko'rsatilgan sug'urta muddati tugaguniga qadar amal qiladi. Sug'urta muddati sug'urta mukofoti olingan kundan boshlab keyingi kunning soat 00:00 da boshlanadi va sug'urta polishda ko'rsatilgan sug'urta davrining tugash sanasigacha (har ikki sanani ham hisobga olgan holda) davom etadi.

#### **6-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASI (SUG'URTA POLISI)NI BEKOR QILISH**

- 6.1.** Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) qo'yidagi holatlarda bekor qilinadi.
- a) sug'urta muddati tugaganda;
  - b) sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda;
  - v) Sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)dan voz kechsa;
  - g) sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ni Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuvga binoan bekor qilish;
  - d) agar sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) kuchga kirgandan keyin sug'urta hodisasi yuzaga kelishi ehtimoli yo'qolgan bo'lsa va sug'urta hodisasidan tashqari boshqa holatlar tufayli sug'urta xavfining mavjudligi to'xtatilgan bo'lsa;
  - e) Sug'urta qildiruvchining vafoti;
  - j) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, sug'urta Qoidalarida va Oferta'da nazarda tutilgan boshqa holatlarda.
- 6.2.** 6.1-bandida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bekor qilinganda sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

#### **7-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

- 7.1.** Sug'urtalovchining majburiyatlari:
- a) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, ushbu Oferta'da ko'rsatilgan muddatda sug'urta to'lovini amalga oshirish;
  - b) Sug'urta qildiruvchi va uning mulkiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, agar bu O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, oshkor qilmaslik;
  - v) Sug'urtalovchining iltimosiga binoan sug'urta masalalari bo'yicha maslahat berish;

7.2. Sug'urtalovchi qo'yidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ni haqiqiy emas deb topishni va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llashni talab qilish, agar Sug'urta qildiruvchi shartnomani tuzishda (polisni berishda) bila turib Sug'urtalovchiga sug'urta obyekti to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;

b) agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta shartlarida belgilangan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan bo'lsa, sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortish;

v) Qo'idalar'da, sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)da, ushbu Oferta'da va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;

7.3. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

a) ushbu Oferta shartlariga rioya qilish;

b) sug'urta hodisasi yuz bermasligi uchun unga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rish;

v) ushbu oferta tuzilayotganda Sug'urtalovchiga tavakkalchilik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun muhim bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni yetkazish;

7.4. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) Ushbu Oferta bilan tanishish;

b) Sug'urtalovchidan sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha majburiyatlarni bajarishni talab qilish;

v) Ushbu Oferta O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ni muddatidan oldin bekor qilish;

g) Ushbu Oferta va O'zbekiston qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;

### **8-BO'LIM. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI VA SHARTLARI**

8.1. Sug'urta qildiruvchi hodisa yuz berganda, bu haqida zudlik bilan va 72 soat ichida (dam olish va bayram kunlarini hisobga olmagan holda) har qanday maqbul yo'l bilan (telefon, Telegram orqali) Sug'urtalovchiga xabar berish lozim. Xabar bergan kundan boshlab, 30 (o'ttiz) ish kunidan kechiktirmagan holda hodisa yuz berganligi haqidagi yozma ariza va Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan zarar faktini tasdiqlash, sababi va miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etish lozim.

8.2. Sug'urta tovonini olish uchun o'rnatilgan shakldagi ariza quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda taqdim etiladi:

- sug'urta polisi (polis yozma shaklda rasmiylashtirilganda);
- shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport) nusxasi;
- sug'urtalangan mulkka bo'lgan egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- mustaqil baholovchi tashkilotning zarar miqdori bahosi haqidagi dalolatnomasi (ma'lumoti);
- vakolatli organlarning (Gidrometeorologik xizmat, FVV, IIV, tergov organlari, sud va boshqa maxsus vakolatli organlarning qarori) sug'urta hodisasi to'g'risidagi hujjatlari.

8.3. Sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zarar miqdori mustaqil baholovchi tomonidan aniqlanadi. Sug'urta tovonini sug'urta polisida belgilangan sug'urta summasi doirasida to'lanadi.

### **9-BO'LIM. UMUMIY SHARTLAR.**

9.1. Hisoblangan sug'urta mukofoti bir yo'la to'lanadi. Bunda to'lov sug'urta mukofoti to'langan sanadan uch kundan keyingi kunning 00:00 soatidan boshlab 12 (o'n ikki) oyga qadar amal qiladi.

9.2. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lovi bo'yicha qarorini qabul qilishi uchun Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) va o'zgalardan boshqa zaruriy hujjatlarni belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

9.3. Sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi)ning bank hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan barcha zaruriy hujjatlar olingandan so'ng, sug'urta dalolatnomasi tasdiqlangan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni davomida to'lab beriladi. Hodisa yuzasidan jinoiy ish ochilgan holat bundan mustasno.

9.4. Shartnoma bo'yicha sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan Tomonlar bilan kelishilgan holda, Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi)ning bank plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.5. Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan, qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomaga ko'ra Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi)ning vakiliga to'lab berilishi mumkin.

9.6. Agar Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxslardan pul mablag'i olgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta qilish shartlari bo'yicha, javobgar shaxsdan olingan pul mablag'i va haqiqiy zarar o'rtasidagi farqni sug'urta summasi doirasida to'lab beradi.

9.7. Agar amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan da'vo muddati davomida Qonun yoki ushbu polis bo'yicha Sug'urta qildiruvchini to'liq yoki qisman tovon olish huquqidan mahrum qiluvchi holatlar aniqlansa, Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasining ro'y berishi natijasida polis bo'yicha olgan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qaytarib berishga majbur.

### **10-BO'LIM. MAXSUS SHARTLAR**

10.1. Agarda mol-mulk boshqa sug'urta tashkilotida ixtiyoriy sug'urta qilingan bo'lsa Fuqarolik kodeksining 941-moddasi "Birgalikda sug'urta qilish" qoidalariga ko'ra javobgarlik olib boriladi.



10.2. Fuqorolik kodeksning 957-moddasiga ko'ra, Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tkazishi shart.

10.3. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

10.4. Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsга nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

## 11-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

11.1. O'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

11.2. Polis va ushbu Oferta'da nazarda tutilgan yoki ular bilan bog'liq masalalar bo'yicha, shu jumladan ularni bajarish va buzish bilan bog'liq nizolar, da'volar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralarini ko'radilar.

11.3. Agar tomonlar muzokaralar orqali tinch yo'l bilan kelishmasa, Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzilishi (rasmiylashtirilishi), o'zgarishi, tugatilishi, bekor bo'lishi, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi (to'liq yoki qisman) bilan yuzaga kelgan yoki kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar va da'volar Sug'urtalovchining ixtiyori bilan fuqarolik ishlarining sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra hal etiladi. Da'vo arizasi bilan tumanlararo sudiga yoki Haqamik sudiga murojaat qilishni tanlash huquqi Sug'urtalovchida qoladi.

11.4. Elektron hujjat aylanmasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Tomonlar Sug'urta oidalar va ushbu Oferta (ariza so'rovnomasi, sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi, schot-faktura, aktlar, sertifikatlar, hujjatlar va boshqalar) doirasida elektron shaklda tuzilgan barcha hujjatlarni kelishib oladilar va yuridik kuchini tan oladilar va ularni qog'ozdagi hujjatlarga tenglashtiradigan, qo'lda yozilgan imzo bilan imzolangan va tegishli Tomonning muhri bilan tasdiqlanganligida ishonch bildiradilar, agar ushbu elektron hujjatlar operatorlardan biri tomonidan qayta ishlangan va agar ular Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra elektron hisob varaq-fakturalar va aylanmasi tizim orqali (ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsat olingan elektron hujjatlar uchun ruxsat olingan axborot vositasi) yuborilgan bo'lsa.

11.5. "MY-INSURANCE" AJ STning internet axborot tarmog'idagi rasmiy sayti: <https://myinsurance.uz/qoidalar> Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytidan Sug'urta qildiruvchi ushbu axborot tizimining operatori bo'lgan Sug'urta qildiruvchi o'rtasida elektron shaklda ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan axborot tizimi sifatida foydalanish mumkin, shu jumladan sug'urta polisini tuzish, xulosa qilish, o'zgartirish, muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi ariza, sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida xabar berish, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza, ko'rib chiqish bosqichi va natijalari to'g'risida ma'lumot yuborish; sug'urta tovonini amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta hodisasi belgilarga ega bo'lgan hodisalar yuz bergan taqdirda, siz Oferta'da ko'rsatilgan telefon orqali voqea haqida xabar berishingiz yoki "MY-INSURANCE" AJ ST ning eng yaqin ofisi (filiali)ga murojaat qilishingiz kerak bo'ladi.

Filiallarining manzillari, telefonlari va ish vaqti Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan.

Manzil: 100015, Toshkent sh., Kichik Mirobod ko'chasi, 95

Bank nomi: O'ZR TIF "MILLIY BANK" SAYOHAT FILIALI

Bank kodi: 00450

Bank h/r.: 20208000104786066001

XXTUT: 96220

STIR: 207002342

Rasmiy internet sayti: <https://myinsurance.uz>

Elektron pochta: [info@myinsurance.uz](mailto:info@myinsurance.uz)

## ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА ПО СТРАХОВОМУ ПРОДУКТУ «MENING MULKIM»

Настоящая Публичная оферта (далее — «Оферта») представляет собой предложение Акционерного общества страховой компании «MY-INSURANCE» (далее — «Страховщик») неограниченному кругу физических лиц (далее — «Страхователь») заключить договор страхования в электронном виде через информационные системы Страховщика на условиях, изложенных в настоящей Оферте. Страховщик и Страхователь являются сторонами соглашения.

Принятие условий настоящей Оферты и уплата установленной страховой премии считается акцептом её условий и согласием Страхователя на заключение договора страхования. После подтверждения факта уплаты страховой премии Страхователю направляется электронный страховой полис, и договор страхования считается заключённым.

Настоящая Оферта регулирует отношения по страхованию граждан по продукту «MENING MULKIM», действующему на дату оформления страхового полиса, на условиях, указанных в настоящей оферте. Оферта общедоступна на официальном веб-сайте по ссылке: <https://myinsurance.uz/qoidalar>

В соответствии со статьёй 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан безусловное принятие (акцепт) условий настоящей Оферты считается согласием со следующими положениями:

- условия настоящей Оферты, включая указанные в ней условия страхования;
- согласие на обработку персональных данных, предоставленных для оформления страхового полиса, включая их систематизацию, хранение, использование, передачу, распространение, обработку в автоматизированной или неавтоматизированной форме в течение 5 (пяти) лет в целях осуществления страховой деятельности, а также на передачу третьим лицам для исполнения обязательств по договору страхования и обеспечения внутреннего документооборота.

В случае неполной оплаты страховой премии, а также при получении уведомления о её отзыве Страховщиком до акцепта или одновременно с ним, акцепт считается не полученным.

Термины «Договор страхования» и «Страховой полис» в дальнейшем в тексте имеют одинаковое значение в отношении настоящего электронного документа.

## ОСНОВНЫЕ УСЛОВИЯ ДОГОВОРА СТРАХОВАНИЯ ИМУЩЕСТВА, ЗАКЛЮЧЁННОГО НА ОСНОВАНИИ ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ ПО ПРОДУКТУ «MENING MULKIM»

### РАЗДЕЛ 1. ТЕРМИНЫ И ИХ ОПРЕДЕЛЕНИЯ

1.1. Основные термины, используемые в настоящей Оферте:

- **Страховщик** — АО СО «MY-INSURANCE», осуществляющее деятельность на основании лицензии, выданной Агентством по развитию страхового рынка при Министерстве финансов Республики Узбекистан.
- **Страхователь** — физическое лицо, заключившее страховой полис со Страховщиком и уплатившее страховую премию.
- **Страховой случай** — внезапное, непредвиденное, произошедшее помимо воли человека событие, в результате которого застрахованному имуществу причинён ущерб в период действия страхования.
- **Страховой полис** — документ, подтверждающий обязательства Страховщика перед Страхователем в пределах страховой суммы, оформляемый после уплаты страховой премии.
- **Страховая сумма** — максимальный размер денежных обязательств Страховщика по данному полису перед Страхователем.
- **Страховая премия** — страховой взнос, который Страхователь обязан уплатить Страховщику (его агенту) при заключении полиса.
- **Страховое возмещение** — сумма, выплачиваемая Страховщиком полностью или частично в случае наступления страхового события, предусмотренного полисом.
- **Заявка-анкета** — электронная форма заявления, заполняемая Страхователем через официальный веб-сайт или онлайн-сервис Страховщика. Правильно заполненная электронная заявка приравнивается к письменному заявлению.
- **Оферта** — предложение, направленное одному или нескольким определённым лицам, выражающее намерение заключить договор на предложенных условиях.
- **Страховая территория** — территория действия страхования, указанная в договоре (полисе).
- **Время ответственности Страховщика** — круглосуточно.
- **Срок ответственности Страховщика** — 365 дней. Ответственность Страховщика наступает с 00:00 часов дня, следующего за днём уплаты страховой премии.
- **Франшиза (безусловная)** — часть ущерба, не подлежащая возмещению Страховщиком по каждому страховому случаю.

### РАЗДЕЛ 2. ОБЪЕКТЫ И СУБЪЕКТЫ СТРАХОВАНИЯ

2.1. **Объект страхования** — имущественные интересы Страхователя, связанные с возмещением ущерба, причинённого его имуществу в результате определённых рисков в течение действия полиса.

2.2. **Субъекты страхования** — Страховщик и лица, указанные в полисе как Страхователь и Выгодоприобретатель.

### РАЗДЕЛ 3. СТРАХОВЫЕ СЛУЧАИ. ИСКЛЮЧЕНИЯ ИЗ СТРАХОВЫХ СЛУЧАЕВ

3.1. К страховым случаям относятся следующие риски:

- пожар (воздействие огня, взрыв газа, удар молнии, ущерб от горючих веществ, ущерб от мероприятий по тушению пожара);
- затопление (вследствие аварии в сантехнических системах, из соседних помещений/зданий);
- механическое повреждение (удар транспортных средств, падение летательных аппаратов и их частей, деревьев, столбов, предметов);
- противоправные действия третьих лиц (вандализм, кража, разбой, грабёж, хулиганство);
- стихийные бедствия (землетрясение, оползень, обвал, ураган, буря, тайфун, извержение вулкана, наводнение, интенсивные атмосферные осадки).

3.2. Не считаются страховыми случаями и не подлежат возмещению:

- ядерный взрыв, радиация или радиоактивное заражение;
- военные действия и иные военные мероприятия;
- гражданские войны, народные волнения, забастовки;
- разрушение, конфискация, реквизиция, изъятие или уничтожение имущества по решению государственных органов;
- умышленные действия Страхователя или членов его семьи;
- действия/бездействие Страхователя в состоянии опьянения (токсического, наркотического, алкогольного);

- гниение, коррозия и иные естественные изменения свойств имущества;
- хранение, изготовление и использование взрывчатых веществ и устройств, проведение химических или физических экспериментов в квартире/жилище;
- случаи, произошедшие после предупреждения местными уполномоченными органами (МЧС, МВД, Гидромет и др.) о риске стихийных бедствий, если полис был оформлен после такого предупреждения;
- повреждения электрических систем/устройств при коротком замыкании, если не вызвали другие страховые случаи;
- повреждения, вызванные дефектами имущества, существовавшими на момент заключения договора.

#### **РАЗДЕЛ 4. СТРАХОВАЯ СУММА, ФРАНШИЗА, СТРАХОВАЯ ПРЕМИЯ И ПОРЯДОК ЕЁ УПЛАТЫ**

4.1. Страховая сумма — это денежная сумма, за выполнение обязательств по которой отвечает Страховщик в соответствии с договором страхования (страховым полисом).

4.2. Размер страховой суммы устанавливается по соглашению между Страхователем и Страховщиком и указывается в договоре страхования (страховом полисе).

4.3. Франшиза по условиям страхования не применяется.

4.4. При расчёте страховой премии, подлежащей уплате по страховому полису, Страховщик применяет утверждённые им страховые тарифы, учитывающие характер страхового риска, объём и срок страховых обязательств.

4.5. Размер страховой премии указывается на веб-сайте Страховщика в режиме реального времени и оплачивается Страхователем одновременно путём перевода денежных средств на расчётный счёт Страховщика с использованием операторов платёжных систем.

4.6. Факт уплаты страховой премии Страхователем одновременно подтверждает его согласие со всеми условиями данной оферты.

4.7. Валютой взаиморасчётов является национальная валюта Республики Узбекистан – сум.

#### **РАЗДЕЛ 5. ДОГОВОР СТРАХОВАНИЯ И СРОК ЕГО ДЕЙСТВИЯ**

5.1. Договор страхования может быть заключён на срок не более 1 (одного) года. Срок действия договора страхования (страхового полиса) не должен превышать срок действия страхового продукта «MENING MULKIM» (или планируемого срока его замены).

5.2. Страховой полис вступает в силу с момента уплаты страховой премии Страхователем и действует до окончания срока страхования, указанного в полисе. Срок страхования начинается в 00:00 часов следующего дня после получения страховой премии и продолжается до окончания указанного в полисе страхового периода (включительно обе даты).

#### **РАЗДЕЛ 6. РАСТОРЖЕНИЕ ДОГОВОРА СТРАХОВАНИЯ (СТРАХОВОГО ПОЛИСА)**

6.1. Договор страхования (страховой полис) прекращается в следующих случаях:

- а) по истечении срока страхования;
- б) при полном выполнении обязательств Страховщиком;
- в) при отказе Страхователя от договора страхования (страхового полиса);
- г) по соглашению между Страхователем и Страховщиком о расторжении договора страхования (страхового полиса);
- д) если после вступления в силу договора страхования (страхового полиса) вероятность наступления страхового случая исчезла и страховой риск прекратился по иным причинам, не связанным со страховым случаем;
- е) в случае смерти Страхователя;
- ж) в других случаях, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан, Правилами страхования и настоящей Офертой.

6.2. При расторжении договора страхования (страхового полиса) по основаниям, указанным в пункте 6.1, страховая премия возврату не подлежит.

#### **РАЗДЕЛ 7. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН**

7.1. Обязанности Страховщика:

- а) в случае наступления страхового случая произвести страховую выплату в сроки, указанные в настоящей Оферте;
- б) не разглашать информацию о Страхователе и его имущественном положении, если это не противоречит законодательству Республики Узбекистан;
- в) по запросу Страхователя консультировать по страховым вопросам.

7.2. Права Страховщика:

- а) требовать признания договора страхования (страхового полиса) недействительным и применения последствий недействительности, предусмотренных действующим законодательством, если Страхователь



умышленно предоставил недостоверную информацию о страхуемом объекте при заключении договора (выдаче полиса);

б) отказаться от выплаты страхового возмещения, если Страхователь не исполнил или ненадлежащим образом исполнил обязательства, установленные настоящей Офертой;

в) осуществлять иные действия, предусмотренные Правилами, договором страхования (страховым полисом), настоящей Офертой и законодательством Республики Узбекистан.

**7.3. Обязанности Страхователя:**

а) соблюдать условия настоящей Оферты;

б) принимать все возможные меры, зависящие от него, для предотвращения наступления страхового случая;

в) при заключении настоящей оферты предоставить Страховщику достоверную информацию, необходимую для оценки уровня риска.

**7.4. Права Страхователя:**

а) ознакомиться с настоящей Офертой;

б) требовать от Страховщика выполнения обязательств по договору страхования (страховому полису);

в) досрочно расторгнуть договор страхования (страховой полис) в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

г) осуществлять иные действия, предусмотренные настоящей Офертой и законодательством Республики Узбекистан.

## **РАЗДЕЛ 8. ПОРЯДОК И УСЛОВИЯ ВЫПЛАТЫ СТРАХОВОГО ВОЗМЕЩЕНИЯ**

8.1. В случае наступления страхового случая, Страхователь обязан незамедлительно, но не позднее 72 часов (за исключением выходных и праздничных дней), любым приемлемым способом (по телефону, через Telegram) уведомить Страховщика. В течение 30 (тридцати) рабочих дней с даты уведомления необходимо подать письменное заявление о страховом случае и предоставить иные документы, требуемые Страховщиком, необходимые для подтверждения факта ущерба, выяснения причины и размера убытков.

8.2. Для получения страхового возмещения подаётся заявление установленной формы с приложением следующих документов:

- страховой полис (если он оформлен в письменной форме);
- копия документа, удостоверяющего личность (паспорт);
- документы, подтверждающие право собственности на застрахованное имущество;
- заключение (справка) независимой оценочной организации о размере ущерба;
- документы уполномоченных органов (Гидрометеослужбы, МЧС, МВД, следственных органов, суда и других специальных уполномоченных органов) о страховом случае.

8.3. Размер ущерба, нанесённого застрахованному имуществу, определяется независимым оценщиком. Страховое возмещение выплачивается в пределах страховой суммы, указанной в страховом полисе.

## **РАЗДЕЛ 9. ОБЩИЕ УСЛОВИЯ**

9.1. Начисленная страховая премия оплачивается единовременно. При этом страховая защита начинает действовать с 00:00 часов третьего дня после уплаты страховой премии и продолжается до 12 (двенадцати) месяцев.

9.2. Страховщик имеет право требовать у Страхователя (Выгодоприобретателя) и третьих лиц иные необходимые документы в установленном порядке для принятия решения о выплате страхового возмещения.

9.3. Страховое возмещение перечисляется на банковский счёт Страхователя (Выгодоприобретателя) в течение 5 (пяти) рабочих дней с момента получения всех необходимых документов и подтверждения страхового случая. Исключение составляют случаи, по которым возбуждено уголовное дело.

9.4. По соглашению Сторон, страховое возмещение может быть перечислено на банковскую пластиковую карту Страхователя (Выгодоприобретателя).

9.5. Страховое возмещение может быть выплачено представителю Страхователя (Выгодоприобретателя) по доверенности, оформленной в соответствии с требованиями законодательства.

9.6. Если Страхователь (Выгодоприобретатель) получил денежные средства от лица, ответственного за причинённый ущерб, Страховщик компенсирует разницу между полученной суммой и фактическим ущербом в пределах страховой суммы, согласно условиям страхования.

9.7. В случае если в течение срока исковой давности, установленного действующим законодательством, выявятся обстоятельства, влекущие за собой полную или частичную утрату права Страхователя на получение страхового возмещения по Закону или настоящему полису, Страхователь обязан вернуть Страховщику выплаченное по полису страховое возмещение.

## **РАЗДЕЛ 10. ОСОБЫЕ УСЛОВИЯ**

10.1. В случае если имущество застраховано в другой страховой компании на добровольной основе, ответственность распределяется в соответствии со статьёй 941 Гражданского кодекса Республики Узбекистан «Совместное страхование».

10.2. В соответствии со статьёй 957 Гражданского кодекса, право требования к лицу, ответственному за возмещение убытков, переходит к Страховщику в пределах выплаченной суммы страхового возмещения.

10.3. Страхователь (Выгодоприобретатель) обязан предоставить Страховщику все необходимые документы и доказательства, а также сообщить всю информацию, необходимую для реализации перешедшего к Страховщику права требования.

10.4. Если Страхователь (Выгодоприобретатель) отказывается от своего права требования к виновному лицу либо по вине Страхователя реализация этого права становится невозможной, Страховщик освобождается от обязанности выплаты страхового возмещения полностью или частично и вправе потребовать возврата излишне выплаченной суммы.

#### РАЗДЕЛ 11. ПРОЧИЕ УСЛОВИЯ

11.1. За неисполнение или ненадлежащее исполнение своих обязательств стороны несут ответственность в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.

11.2. В случае возникновения споров, требований или разногласий, связанных с настоящей Офертой и страховым полисом, в том числе их исполнением и нарушением, стороны обязуются предпринять меры по их урегулированию путём переговоров.

11.3. Если спор не будет урегулирован путём переговоров, все возникающие или возможные споры, связанные с заключением, изменением, прекращением, аннулированием, недействительностью или незаключённостью договора страхования (полиса), разрешаются по выбору Страховщика в соответствии с гражданским процессуальным законодательством Республики Узбекистан либо в межрайонном суде, либо в Хакоматском суде.

11.4. В соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об электронном документообороте», стороны признают юридическую силу всех документов, составленных в электронной форме в рамках настоящей Оферты и страхового договора (заявка, полис, договор, акт, сертификат и другие), если они обработаны уполномоченным оператором и направлены через систему электронного документооборота, разрешённую Государственным налоговым комитетом.

11.5. Официальный сайт АО СК «MY-INSURANCE»: <https://myinsurance.uz/qoidalar> может использоваться в качестве информационной системы, обеспечивающей электронный обмен данными между Страхователем и Страховщиком, включая оформление, изменение, расторжение полиса, уведомление о страховом случае, подачу заявления на страховое возмещение, информацию о рассмотрении и выплате.

В случае наступления события, обладающего признаками страхового случая, необходимо сообщить об этом по телефону, указанному в Оферте, либо обратиться в ближайший офис (филиал) АО СК «MY-INSURANCE».

Адреса, телефоны и часы работы филиалов указаны на официальном сайте Страховщика.

Реквизиты Страховщика:

Полное наименование:

Акционерное общество Страховая Компания «MY-INSURANCE»

Адрес: 100015, г. Тошкент, улица «Kichik Mirobod», 95

Банк: АО Национальный банк Республики Узбекистан ЦБУ «Саёхат»

МФО: 00450

Банк р/с.: 2020 8000 1047 8606 6001

ОКЕД: 96220

ИНН: 207002342

Официальный интернет - сайт: <https://myinsurance.uz>

Электронная почта: info@myinsurance.uz